

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.72.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BAFAYEVA ZAHRO XASANOVNA

**TURLICHA SHO‘RLANGAN TUPROQLARDA YETISHTIRILGAN
G‘O‘ZA HOSILDORLIGIGA AZOTLI O‘G‘ITLAR TA‘SIRINING
FIZIOLOGIK ASOSLARI**

03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Bafayeva Zahro Xasanovna

Turlicha shoʻrlangan tuproqlarda yetishtirilgan gʻoʻza hosildorligiga azotli oʻgʻitlar taʼsirining fiziologik asoslari..... 3

Бафаева Захро Хасановна

Физиологические основы влияния азотных удобрений на урожайность хлопчатника, возделываемого на засоленных в различной степени почвах .. 21

Bafayeva Zahro Xasanovna

Physiological basis of the effect of nitrogen fertilizers on the yield of cotton cultivated on soils saline to varying degrees..... 39

Eʼlon qilingan ishlar roʻuxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.72.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BAFAYEVA ZAHRO XASANOVNA

**TURLICHA SHO‘RLANGAN TUPROQLARDA YETISHTIRILGAN
G‘O‘ZA HOSILDORLIGIGA AZOTLI O‘G‘ITLAR TA‘SIRINING
FIZIOLOGIK ASOSLARI**

03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PHD/B518 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Ortikov Tulkin Kuchkarovich biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentalar:	Norboyeva Umida Toshtemirovna biologiya fanlari doktori, professor Avutxonov Burxon Savurxonovich biologiya fanlari falsafa doktori, dotsent
Etakchi tashkilot:	Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.72.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 10-iyul soat 13⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14, faks (+99865) 221-26-12, e-mail: bsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (463-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 212-29-12; faks: (+99865) 212-29-12.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 21-iyun kuni tarqatildi.

(2024-yil 21-iyun №6- raqamli bayonnomasi)



H.T. Artikova
Ilmiy daraja beruvchi, ilmiy kengash raisi,
biologiya fanlari doktori, professor

A.M. Qobilov
Ilmiy daraja beruvchi, ilmiy kengash ilmiy
kotibi, biologiya fanlari falsafa doktori
(PhD), dotsent

A.E. Xolliyev
Ilmiy daraja beruvchi, ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda “dunyo tuproqlarining sho‘rlanishi ekotizimga tahdid soladigan asosiy omil tuproq degradatsiyasi jarayonlari bo‘lib, qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, oziq-ovqat xavfsizligi va barqarorligi uchun eng muhim global muammolardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Tuproqlarning 33 % ga yaqini allaqachon degradatsiyaga uchragan va tuproq degradatsiyasi davom etmoqda, bu esa katta tashvish uyg‘otmoqda. Sho‘rlanish oziq-ovqat xavfsizligi kontekstida insoniyat uchun eng xavfli tahdidlardan biridir. Bu muammo barcha mamlakatlarga taalluqlidir. Eng ko‘p zarar ko‘rgan mintaqalar Markaziy Osiyo va Afrika, ammo tuproq sho‘rlanishi barcha qit‘alarda sodir bo‘lmoqda. Tuproqning sho‘rlanishidan jami yo‘qotishlar taxminan 27 milliard dollarni tashkil qildi”¹. Shu sababli mavjud sho‘rlangan tuproqlar sharoitida asosiy qishloq xo‘jalik ekinlaridan biri bo‘lgan g‘o‘za fiziologiyasini atroflicha o‘rganish asosida agrotexnologik tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda qishloq xo‘jaligi sohasida hozirgi kunda har xil tip va darajada sho‘rlangan tuproqlarda turli ekinlar yetishtirish va ularning fiziologik faolligi, hosildorligi, hosil sifati, tuproq unumdorligi, meliorativ holati bo‘yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayni yo‘nalishda sug‘oriladigan tuproqlar meliorativ holati, unumdorligi, qishloq xo‘jalik ekinlarini rayonlashtirish, agrotexnologik tadbirlarni ishlab chiqish, hosildorlik ko‘rsatkichlari, fiziologik faolligi va unga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlash bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizning turlicha sho‘rlangan tuproq-iqlim sharoitida g‘o‘za yetishtirish agrotexnologiyalarini to‘g‘ri olib borish, jumladan, azotli o‘g‘itlarni to‘g‘ri me‘yor, muddat va shakllarda qo‘llash orqali g‘o‘za o‘simligining fiziologik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib paxta hosilini oshirish va hosil sifatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi. Bu borada, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish, sug‘orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “...o‘g‘itlarni tuproqdagi harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdorlariga bog‘liq holda tabaqalashtirib solish, tuprog‘i sho‘rlangan yerlarda azotli o‘g‘itlar me‘yorini 10-15 foiz oshirish, fosfor va kaliyli o‘g‘itlarni agrokimyoviy kartogrammalar asosida berishni tashkil etish...”² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shunga ko‘ra mamlakatimizning turlicha sho‘rlangan tuproq-iqlim sharoitlarida g‘o‘zadan yuqori va sifatli hosil olish, tuproq unumdorligini oshirishda mineral o‘g‘itlardan to‘g‘ri va samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

¹<https://www.fao.org>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-martdagi PQ-179-son “Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish, sug‘orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” farmonlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sho‘rlangan tuproqlar sharoitida o‘simliklarni yetishtirish, ularni fiziologik faolligini o‘rganish, yuqori va sifatli hosil olish bo‘yicha dunyoning juda ko‘p yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida ilmiy ishlar olib borishga e‘tibor qilinmoqda. Jumladan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik tashkiloti (FAO), ICAR-Markaziy G‘o‘za tadqiqoti instituti, Qishloq xo‘jaligi tadqiqotlar markazi (Misr), Eroning Isfahon universiteti, Qishloq xo‘jaligi universiteti (Pokiston), Haryana qishloq xo‘jaligi universiteti (Hindiston), G‘arbiy Avstraliya universiteti (Avstraliya), Kastilya va Leon agrar texnologik instituti (Ispaniya), Jilin qishloq xo‘jaligi universiteti (Xitoy), University of Massachusetts Amherst (AQSh) da ushbu sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. G‘o‘zaning fiziologik ko‘rsatkichlariga sho‘rlanish tipi va darajalari hamda azotli o‘g‘itlarning ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, M. Ashraf (2004) o‘simliklarni sho‘rlanishga chidamliligi va moslashishi, ushbu jarayonlarda o‘simliklar fiziologik ko‘rsatkichlarini o‘zgarishini tadqiq qilgan. A.K. Parida, A. B. Das (2005), S. Chawla, S. Jain (2013), M. J. Gomez-Bellot, S. Alvarez, M. Castillo, S. Banon, M. F. Ortuno (2013), R. Munns (2008) tadqiqotlarida tuproqlarning sho‘rlanishi sharoitida o‘simliklarni sho‘rlanishga chidamliligi, g‘o‘za o‘simligining fiziologik ko‘rsatkichlariga ta‘sir qiluvchi omillar bo‘yicha qimmatli ma‘lumotlar o‘z aksini topgan.

MDH davlatlarining hududlarida tarqalgan sho‘rlangan tuproqlarning sho‘rlanish holati, turli darajada sho‘rlangan tuproqlar tarkibidagi oziq moddalar miqdori, sho‘rlanish tipi va darajasidan kelib chiqib g‘o‘za o‘simligini yetishtirishda o‘g‘itlashning o‘simlik fiziologik ko‘rsatkichlariga ta‘siri, tuproq sho‘rlanish darajasi va azotli o‘g‘itlarga bog‘liq ravishda g‘o‘zaning fiziologik ko‘rsatkichlarini o‘zgarishi, bunda azotli o‘g‘itlar hamda sho‘rlanish darajalari bo‘yicha xulosalar qilingan (J.Y.Batkayev, M.J.Ashirbekov, 2009; S.M.Talibi, 2021; J.Y.Batkayev, M.T.Shotaeva, 2012; M.J.Ashirbekov, 2012). Bundan tashqari ba‘zi bir tadqiqotlarda (A.M.Guseynov, A.T.Gaziev, N.V.Guseynov, X.G.Xalilov, O.Z Omarov, 2017), g‘o‘za o‘simligining mineral oziqlanishi natijasida fotosintez va transpiratsiya jadalliklari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Respublikamizning sug‘oriladigan tuproqlar sharoitida sho‘rlanish darajalari va azotli o‘g‘it me‘yorlarining g‘ozaning barg yuzasiga, bargdagi xlorofill miqdori,

fotosintez jadalligi va sof mahsuldorligi, quruq modda to'planishiga, transpiratsiya jadalligi, suvni saqlash darajasi, bargdagi suv shakllari miqdori, katalaza fermenti faolligi va nafas olish jadalligiga hamda boshqa bir qator ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar J.X.Xo'jayev (2019), A.E.Xolliyev (2016), U.T.Norboyeva (2019), J.Z Boshmanov (2009), Y.D.Xolov (2020), A.M.Muradullayev (2020), N.H. Durdiyev, M.Avliyakov, L.Mamatqulova (2020) A.Iminov, S.Xatamov, D.Usmonova (2020) larning ilmiy – tadqiqot ishlarida keltirib o'tilgan. Lekin Buxoro viloyati turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida g'oz'a hosildorligi va fiziologik ko'rsatkichlariga azotli o'g'it me'yorlarining ta'sirini o'rganish bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan va ularni o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy ishlari rejasiga muvofiq "Buxoro viloyati sho'rlangan tuproqlar sharoitida qishloq xo'jalik ekinlarini rayonlashtirish va agrotexnologik tadbirlarni ishlab chiqishda turli xil omillarning ta'siri" (2019-2022 yy) mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro viloyati sharoitida turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarda azotli o'g'it me'yorlarining o'simlik fotosintetik faolligi va g'oz'a hosildorligiga ta'sirining fiziologik asoslarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sho'rlanish darajalari va azotli o'g'itlar me'yorining g'oz'a barg yuzasi, bargdagi xlorofill miqdori, fotosintez jadalligi va sof mahsuldorligi ta'sirini o'rganish;

sho'rlanish darajalari va azotli o'g'it me'yorlarini g'oz'aning transpiratsiya jadalligi, suvni saqlash darajasi, bargdagi suv shakllari nisbati va miqdori, katalaza fermenti faolligi va nafas olish jadalligiga ta'sirini aniqlash;

azotli o'g'itlarning tuproqdagi suvda eruvchan tuzlar miqdori va g'oz'a quruq modda to'plashi, o'sishi hamda rivojlanishiga ta'sirini o'rganish;

sho'rlangan tuproqlar sharoitida azotli o'g'itlarning g'oz'a hosildorligiga ta'sirini tahlil qilish;

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Buxoro viloyati Jondor tumanidagi turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar, azotli o'g'itlar hamda g'oz'aning Buxoro-6 navi olingan.

Tadqiqotning predmetini turli darajada sho'rlangan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida azotli o'g'itlarning g'oz'ani hosildorlik darajasini ifodalovchi fiziologik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda fiziologik, biokimyoviy, kimyoviy, agrokimyoviy, dala tajribasi, fenologik, biometrik usullardan foydalanilgan hamda olingan ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili B.A.Dospexov qo'llanmasi bo'yicha bajarilgan.

Tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida sho'rlanish darajalari va azotli o'g'it me'yorlarining Buxoro-6 g'oz'a navi barg yuzasiga, bargdagi xlorofill

miqdori, fotosintez jadalligi va sof mahsuldorligi, quruq modda to'planishiga ta'sir qilish xususiyatlari isbotlangan;

turli sho'rlanish darajalari va azotli o'g'it me'yorlarini g'o'zaning transpiratsiya jadalligi, suvni saqlash darajasi, bargdagi suv shakllari miqdori, katalaza fermenti faolligi va nafas olish jadalligiga ta'siri ilmiy asosda ochib berilgan;

g'o'zaning mahsuldorlik salmog'i tuproq sho'rlanish darajasiga bevosita bog'liqligi, bu omil g'o'zaning morfofiziologik xususiyatlariga kuchli ta'sir ko'rsatib, o'sishining sekinlashishi, barg sathlari kichrayishi, quruq modda to'planish jadalligini sekinlashtirishi va ayni paytda azotli o'g'itlarni me'yorida qo'llash orqali sho'rlanishning g'o'zani hosildorligini belgilovchi o'simlikdagi fiziologik jarayonlarga salbiy ta'sirini kamaytirishi ilmiy asoslangan;

turli sho'rlanish darajasi sharoitida azotli o'g'it me'yorini o'simlik fiziologik ko'rsatkichlarini o'zgartirish orqali Buxoro-6 g'o'za navi o'sishi va rivojlanishi hamda hosildorligiga ta'siri baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sho'rlangan tuproqlar tuz va oziq rejimini shakllanish qonuniyatlari va unga azotli o'g'itlar ta'siri va bunda o'simlikda kechadigan fiziologik jarayonlar hamda hosil to'planishining o'ziga xosligi ochib berilgan;

sho'rlanish darajalari hamda azotli o'g'itlarni g'o'zaning fiziologik xususiyatlariga ta'sir mexanizmlari - xlorofill a+b miqdori o'zgarishi va azotli oziqlanish kuchayishi hisobiga g'o'za o'simligida fotosintez jadalligi va fotosintez sof mahsuldorligi faollashishi orqali aniqlangan;

turlicha darajada sho'rlangan tuproqlar sharoitida azotli o'g'itlar ta'sirida o'simlik fiziologik holatini o'zgarishi natijasida g'o'zani o'sishi, rivojlanishi va hosil to'plashining o'ziga xosligi ochib berilgan;

turlicha sho'rlangan tuproqlar sharoitida g'o'za o'simligida fiziologik ko'rsatkichlarni optimallashtirib (fotosintez jadalligi, fotosintez sof mahsuldorligi, transpiratsiya jadalligi, barglardagi bog'langan suv miqdori) hosildorlikni oshirishda azotli o'g'itlarni samarali qo'llash (P175K125+N250) yo'llari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi tadqiqotda fiziologik, dala va laboratoriya usullardan foydalanib natijalar olinganligi, ularni nazariy ma'lumotlarga muvofiq kelishi, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilganligi, olingan ilmiy natijalarni xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy nashrlarda chop etilganligi hamda xalqaro va respublika ilmiy anjumanlarida ma'ruza qilinganligi, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilinishi va ular bo'yicha tegishli xulosalar olinishi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turlicha sho'rlangan tuproqlar va sho'rlanish darajalari, tuz rejimi, agrokimyoviy ko'rsatkichlarining dinamik o'zgarishi, turlicha sho'rlangan tuproqlarda azotli o'g'itlar ta'sirining o'ziga xosligi, g'o'za o'simligini hosildorlik ko'rsatkichlari, undagi fiziologik jarayonlarning o'zgarish xususiyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, turlicha shoʻrlangan oʻtloqi allyuvial tuproqlar sharoitida gʻoʻzaning fiziologik koʻrsatkichlariga tuproqning shoʻrlanish darajalari, tuz tarkibini taʼsiri hamda azotli oʻgʻitlar hisobiga optimallashtirish boʻyicha olingan ilmiy maʼlumotlar gʻoʻza ekinini yetishtirish agrotexnologiyalari, hosildorligi va hosil sifatini yaxshilashga qaratilgan agrotexnologik tadbirlarni toʻgʻri belgilashda asos boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turlicha shoʻrlangan tuproqlarda yetishtirilgan gʻoʻza hosildorligiga azotli oʻgʻitlar taʼsirining fiziologik mexanizmlari boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

turlicha shoʻrlangan tuproqlarda gʻoʻza oʻsimligidagi fiziologik jarayonlarni jadallashtirish uchun azotli oʻgʻitlarni oʻsimlikning 2-3 chinbarg, shonalash va gullash fazasi boshlanishida qoʻllash boʻyicha tavsiyalar Buxoro viloyati Jondor tumani “Inson mehri muqaddas”, “Usto Bahrom paxtazori”, “Bunyod-Salim-Hayotjon” fermer xoʻjaliklarida amaliyotga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligining 2021 yil 31 sentyabrdagi 02/025-3740-son maʼlumotnomasi). Natijada, fermer xoʻjaliklari gʻoʻza ekilgan tuproqlarida ilmiy tavsiyalarga asoslangan agrotexnologik tadbirlarni olib borish, tuproq meliorativ holatini va azot rejimini yaxshilash imkonini bergan;

shoʻrlanish darajasi bilan bogʻliq holda tuproq azot rejimi optimallashtirilib ekinlar yetishtirishning agrotexnologik tadbirlari olib borilgan, tuproq tarkibidagi tuzlar miqdoridan kelib chiqqan holda azotli oʻgʻitlar bilan oʻgʻitlash meʼyorlari Buxoro viloyati Jondor tumani fermer xoʻjaliklarida amaliyotga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligining 2021 yil 31 sentyabrdagi 02/025-3740-son maʼlumotnomasi). Natijada, tuproqlarning azot rejimi va gʻoʻzaning fiziologik holati yaxshilanib, agrotexnologik tadbirlarning yuqori samaradorligi hisobiga gʻoʻza ekinidan fosforli va kaliyli oʻgʻitlar fonida azotli oʻgʻitlarni qoʻllash hisobiga paxta hosilini 13-15 s/ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda maʼruza qilingan hamda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, 1 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida oʻtkazilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obʼyekti, va predmetlari bayon etilgan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor

yoʻnalishlariga mosligi yoritilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, muammoni oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, eʼlon qilinganligi, dissertasiya hajmi va tuzilishi toʻgʻrisida maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Shoʻrlangan tuproqlar sharoitida gʻoʻzaning fiziologik xususiyatlari hamda oʻsishi, rivojlanishi, oziqlanishi va hosiliga azotli oʻgʻitlarning taʼsiri (Adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida dunyoda va respublikamiz hududlarida tarqalgan shoʻrlangan sugʻoriladigan tuproqlarning shoʻrlanish holati, turli darajada shoʻrlangan tuproqlar tarkibidagi oziq moddalar miqdori, shoʻrlanish tipi va darajasidan kelib chiqib gʻoʻza oʻsimligini yetishtirishda oʻgʻitlashning oʻsimlik fiziologik koʻrsatkichlariga taʼsiri boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan va tanqidiy hamda qiyosiy tahlil qilingan. Tuproq shoʻrlanish darajasi va azotli oʻgʻitlarga bogʻliq ravishda gʻoʻzaning fiziologik koʻrsatkichlarini oʻzgarishi, bunda azotli oʻgʻitlar hamda shoʻrlanish darajalari boʻyicha xulosalar qilingan. Bu masalalarni asosan dunyoda, respublikamiz va Buxoro viloyatida oʻrganilganlik darajalariga baho berilgan.

Dissertatsiyaning **“Gʻoʻzaning fiziologik xususiyatlarini tahlil qilishda tadqiqot materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obʼyekti va uslublari, tadqiqot oʻtkazilgan joyning tuproq – iqlim sharoitlari, ularning oʻziga xosligi, tajribada ekilgan gʻoʻzaning nav tavsifi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan. Tajribalar Buxoro viloyati Jondor tumani Oʻzbekiston massivida tarqalgan turli darajada shoʻrlangan sugʻoriladigan oʻtloqi allyuvial tuproqlarda olib borildi. Bunda shudgordan oldin tuproq kesmalari qilinib ulardan genetik gorizontlar boʻyicha tuproq namunalarini olindi, olingan tuproq namunalarida agrokimyoviy va suvli soʻrim analizlari amalga oshirildi. Gʻoʻza oʻsimligida fenologik kuzatuvlar va biometrik oʻlchashlar, fiziologik koʻrsatkichlar boʻyicha analizlar umumqabul qilingan uslublari boʻyicha olib borildi. Uch yil davomida olib borilgan dala tajribalarida variantlar paykallarga 4 qaytariqda sistemali ketma-ket usulda bir yarusda joylashtirildi.

Tadqiqot natijasida olingan maʼlumotlarning statistik tahlil qilish ishlari B.A.Dospexov boʻyicha dispersion tahlil usulida olib borilgan.

Dissertatsiyaning **“Tajriba dalasi tuproqlarining meliorativ holati va agrokimyoviy koʻrsatkichlari”** deb nomlangan uchinchi bobida turli darajada shoʻrlangan oʻtloqi allyuvial tuproqlarning agrokimyoviy xossalari, tuz va oziq rejimi tahlil qilingan.

Buxoro viloyati Jondor tumani shoʻrlanmagan oʻtloqi allyuvial tuproqlari gʻoʻza oʻsimligi uchun qulay boʻlib, bunda suvda eruvchan tuzlarni hosil qilgan kation va anionlar miqdori normada boʻladi. Shu bilan birga zararli tuzlar deyarli uchramaydi.

Tajriba olib borilgan kuchsiz shoʻrlangan tuproqlarning oʻrtacha uch yillik (2019-2021 yy.) maʼlumotlari tahlili shuni koʻrsatadiki, nazorat variantida haydov qatlamidagi quruq qoldiq miqdori 0,117 % ni tashkil qiladi. Haydov osti qatlamida esa yuqoridan pastga tomon yuvilgan tuzlar hisobidan 0,232 % ni tashkil qilib, oʻrtacha shoʻrlangan tuproqlarga tomon yaqinlashdi. Azot qoʻllanilmagan fon

variantida bu ko'rsatkichlar nazoratdagidan bir oz yuqori bo'ldi. Bu asosan yerni ekishga tayyorlash va ekish bilan berilgan ayni fosforli va kaliyli o'g'itlarning ulushi bilan bog'liq. Azotli o'g'itlar qo'llanilgan variantlar o'rtasida esa sezilarli farq bo'lmadi. Haydovosti qatlamida fosfor va kaliyli o'g'itlardan iborat bo'lgan fon variantida quruq qoldiq miqdori nazoratga nisbatan ancha yuqori bo'lib, sho'rlanish darajasi deyarli o'rta sho'rlangan tuproqlarga yaqinlashib, 0,295 % ni tashkil etdi. Azotli o'g'itlarning turli me'yori qo'llanilgan variantlarda yuqori ko'rsatkich 7-variantda, ya'ni $N_{300}P_{175}K_{125}$ da kuzatildi va quruq qoldiq 0,289 % bo'lishi aniqlandi.

Sho'rlanish darajasiga ko'ra, o'rtacha sho'rlangan tuproqdagi kalit maydonida uch yillik o'rtacha tuz rejimi azotli o'g'itlar me'yorlarining ta'siriga bog'liq holda o'rganilganda, nazorat variantining haydov qatlamida quruq qoldiq 0,569 % bo'lgan bo'lsa, azotli o'g'itlar qo'llanilmagan fon variantida 0,456 % ni tashkil qildi. Azotli o'g'itlar olti xil me'yorda qo'llanilgan variantlarda bu ko'rsatkich 0,469 % dan 0,586 % gacha tarqalganligi kuzatildi. Birinchi aprelda farq yuqori bo'lmaganligini tuproq analizlari sho'r yuvishdan keyin o'tkazilganligi va suvda eruvchi tuzlar tuproqning pastki qatlamlari tomon yuvilganligi bilan izohlash mumkin. Sho'rlanish tipi haydov va haydovosti qatlamida o'g'it berilmagan nazorat va o'g'it qo'llanilgan barcha variantlarda xlorid-sulfatli ekanligi aniqlandi.


G'oz vegetatsiya davrining o'rtasida o'rtacha va kuchli sho'rlangan tuproqlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekishdan oldingi muddatga nisbatan o'rganilgan barcha variantlarda tuproq haydov (0-30 sm) qatlamida tuzlarning foizi bir oz yuqori bo'lgan bo'lsa ham, sho'rlanish darajasi o'zgarmadi. Sho'rlanish tipi ham bir xil bo'lib xlor-sulfatli ekanligi aniqlandi. O'suv davri davomida anion va kationlar miqdori tuproqning ikkala sho'rlanish darajasida ham biroz ko'paydi. Buni yozda haroratning ortishi va sug'orish natijasida to'plangan tuproq namining yuqoriga ko'tarilishi bilan izohlash mumkin.

Tuproqlarning meliorativ holati yomonlashgan sari tuproq unumdorligi pasayib boradi va o'simliklar o'sib rivojlanishda orqada qoladi. Kuchsiz sho'rlangan tuproqlarning nazorat variantida ammoniy shaklidagi azot miqdori haydov va haydov osti qatlamida 14,0 va 11,2 mg/kg ni, faqat fosforli va kaliyli o'g'it qo'llanilgan fon variantida 15,3 va 10,9 mg/kg, azotli o'g'itlar me'yori ortib borgan variantlarda mos ravishda 16,0 va 11,4 mg/kg, 14,8 va 12,6 mg/kg, 15,3 va 11,5 mg/kg, 14,6 va 11,9 mg/kg, 15,2 va 10,7 mg/kg, 15,7 va 10,9 mg/kg ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkichlar sho'rlanmagan tuproqlardagiga nisbatan biroz kam bo'lgan bo'lsa ham, ulardan sezilarli farq qilmadi. Bundan kelib chiqadiki, sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan tuproqlar o'rtasida ammoniy shakldagi azot miqdoridagi farq yuqori emas. Nitrat shaklidagi azot miqdori ammoniy shaklidagi azot miqdoridan biroz yuqori bo'ldi.

Harakatchan fosfor miqdori barcha variantlar kesimida haydov qatlamida 14,3 mg/kg dan 18,4 mg/kg gacha, haydovosti qatlamida 10,3 mg/kg dan 13,9 mg/kg gacha bo'lishi kuzatildi. Almashinuvchan kaliyning miqdori haydov va haydovosti qatlamlarida o'rganilgan barcha variantlarda 165,0 mg/kg dan 226,0 mg/kg orasida ekanligi aniqlandi. Harakatchan oziq moddalarning miqdori bo'yicha eng yaxshi natija 6-variantda, ya'ni fon+ N_{250} variantida kuzatildi.

Dissertatsiyaning “Turli darajada sho‘rlangan tuproqlar sharoitida g‘o‘zaning fiziologik ko‘rsatkichlariga azotli o‘g‘itlar ta’siri” deb nomlangan 4-bobida sho‘rlanmagan va turlicha darajada sho‘rlangan o‘tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida yetishtirilgan g‘o‘za o‘simligining fiziologik ko‘rsatkichlariga azotli o‘g‘itlarning ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

O‘simliklarda quruq massaning ko‘p bo‘lishi uning vegetativ va generativ organlarining rivojlanishiga sezilarli ta’sir qiladi. O‘simliklarning o‘sib rivojlanishi uchun qo‘llaniladigan mineral o‘g‘itlar orasida azotli o‘g‘itlar muhim hisoblanadi. Azotli o‘g‘itlar optimal me’yorda qo‘llanilishi o‘simliklarning yaxshi o‘sib rivojlanishini ta’minlaydi. Tuproqning u yoki bu darajada sho‘rlanishi o‘simlikda boradigan fiziologik jarayonlarga salbiy ta’sir qiladi. Masalan, sho‘rlangan tuproqda g‘o‘za ekini yetishtirilganda bitta o‘simlikdagi quruq massa og‘irligi o‘g‘it qo‘llanilmagan nazorat variantida shonalarda 4,2 grammni tashkil qilgan bo‘lsa, barglari 18,0 grammni, poyalari 16,2 grammni, chanoqlarining quruq holdagi og‘irligi 15,0 grammni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkichlar miqdori P₁₇₅K₁₂₅ fon variantida nazoratdagiga nisbatan biroz yuqori bo‘lgani holda shonalarida 6,1; barglarida 20,9; poyalarida 19,3; chanoqlarida 18,6 grammga teng bo‘ldi (1-rasm).



1-rasm. Tuproqni turli darajada sho‘rlanishi va azotli o‘g‘itlar me’yoring bir tup g‘o‘za o‘simligi o‘rtacha quruq massasiga ta’siri, g.

Sho'rlanish darajalari ortib borishi bilan g'ozga o'simligini barg yuzasi kamayib bordi. Masalan, o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, g'ozga o'simligining barg yuzasi shonalash fazasida variantlarga bog'liq ravishda 225,3 sm² dan 318,6 sm² gacha bo'lishi aniqlandi. Bir tup g'ozga barg yuzasi gullash fazasida o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda azotli o'g'itlarni qo'llash natijasida ishonarli ortdi. Masalan, bitta o'simlikdagi barg yuzasi o'g'it qo'llanmagan nazorat variantida 1409,2 sm², fon variantida 1904,2 sm² ekanligi tadqiqotlarda kuzatildi. G'ozga ko'saklash davrida o'simlik bargi yuzasi azot qo'llanilgan variantlarda 3909,2 sm² dan 4488,4 sm² gachani tashkil etdi. Vegetatsiya oxirida ushbu ko'rsatkichlar o'g'it qo'llanilmagan nazoratda 2009,1 sm², fonda 3357,3 sm², azotli o'g'itlar qo'llanilgan variantlarda 3596,4 sm² dan 4215,5 sm² gacha ekanligi kuzatildi.

Kuchli sho'rlangan tuproqlarda bir tup g'ozga bargi yuzasi shonalash fazasida 219,2 sm² dan 312,9 sm² gacha o'zgargan bo'lsa, gullash fazasida 1410,0 sm² dan 2005,8 sm² gacha, ko'saklash davrida 3002,9 sm² dan 4431 sm² gacha, vegetatiya oxiriga kelib 2024,0 sm² dan 4011,0 sm² gacha ekanligi kuzatildi (1-jadval).

1-jadval


G'ozga barg sathining o'zgarishiga tuproq sho'rlanishi va azotli o'g'itlarning ta'siri (sm²/tup)

№	Variantlar	Shonalash	Gullash	Ko'saklash	Vegetatsiya oxirida
O'rtacha sho'rlangan					
1	Nazorat	225,3,±2,14	1409,2,±1,2	3188,3,±1,44	2009,1,±4,81
2	P ₁₇₅ K ₁₂₅ -fon	272,2,±1,25	1806,4,±1,22	3802,4,±1,04	3357,3,±2,79
3	Fon+N ₁₀₀	295,0,±1,3	1896,0,±0,22	3909,2,±1,1	3596,4,±1,29
4	Fon+N ₁₅₀	306,1,±1,005	1920,5,±1,05	4001,6,±1,01	3780,3,±1,48
5	Fon+N ₂₀₀	309,2,±1,06	1940,3,±1,23	4196,1,±1,39	3932,7,±1,75
6	Fon+N ₂₅₀	318,6,±1,30	1996,1,±1,03	4352,8,±1,41	4011,6,±1,98
7	Fon+N ₃₀₀	316,5,±1,20	2003,2,±1,02	4404,5,±1,47	4125,2,±6,74
8	Fon+N ₃₅₀	265,2,±1,007	2013,7,±1,6	4488,4,±1,75	4215,5,±3,82
Kuchli sho'rlangan					
1	Nazorat	219,2,±1,65	1410,0,±1,65	3002,9,±2,02	2024,0,±3,2
2	P ₁₇₅ K ₁₂₅ -fon	263,6,±2,21	1812,5,±1,27	3712,5,±2,001	3265,7,±3,002
3	Fon+N ₁₀₀	282,4,±3,45	1899,2,±3,5	3824,3,±1,60	3365,3,±4,35
4	Fon+N ₁₅₀	296,5,±3,001	1910,4,±6,5	3969,0,±1,01	3499,9,±1,54
5	Fon+N ₂₀₀	304,8,±4,005	1930,2,±1,45	4062,4,±1,39	3665,1,±1,37
6	Fon+N ₂₅₀	312,9,±2,25	1988,6,±2,23	4265,7,±2,65	3823,8,±1,09
7	Fon+N ₃₀₀	301,3,±3,62	2000,6,±1,65	4391,2,±7,7	3964,6,±8,09
8	Fon+N ₃₅₀	252,0,±1,14	2005,8,±1,77	4431,5,±4,5	4011,0,±2,71

G'ozga o'simligi bargi tarkibidagi xlorofill miqdori azotli o'g'itlarga bevosita bog'liq hisoblanadi. Azotli o'g'itlarning yetishmovchiligi bargning rangsizlanishiga, xlorofill pigmentlarining yo'qolishiga olib keladi. Sho'rlanmagan tuproqlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, g'ozaning shonalash fazasida o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantida xlorofill "a" ning miqdori 1,132 mg, xlorofill "b" miqdori esa 0,301 mg ni tashkil qildi. Azotli o'g'itlar qo'llanilmagan, lekin fosforli va kaliyli o'g'itlar qo'llanilgan fon variantida xlorofill "a" miqdori 1,210 mg, xlorofill "b" miqdori 0,340 mg bo'lishi aniqlandi. Bu ko'rsatkichlar azotli o'g'itlar qo'llanilgan variantlarda azotli o'g'itlarning me'yori ortib borish tartibida, ya'ni 100 kg dan 350 kg gacha ortganda mos ravishda g'oz bargidagi xlorofill "a" miqdori 1,245 mg dan 1,425 mg gacha, xlorofill "b" miqdori esa 0,395 mg dan 0,460 mg gacha ortib borganligi kuzatildi.

Turlicha sho'rlangan tuproqlarda g'ozga o'simligi ustida olib borilgan tajribalarda fotosintez jadalligi turlicha bo'ldi. Masalan, sho'rlanmagan tuproqlarda yetishtirilgan g'ozga o'simligida nazorat variantida fotosintez jadalligi bir soat davomida 0,78 g/m² ni tashkil qildi, bu ko'rsatkich P₁₇₅K₁₂₅ variantida 1,01 g/m² gacha ortdi.


Azotli o'g'itlar qo'llanilgan va me'yorlari ortib borgan variantlarda tegishli 1,10 g/m² dan 1,53 g/m² gacha ekanligi aniqlandi. Azot qo'llanilgan variantlarda fotosintez jadalligi nazorat variantga nisbatan 41 foizdan 96 foizgacha, fon variantiga nisbatan 9 foizdan 51 foizgacha yuqori bo'lganligi kuzatildi. Ushbu ko'rsatkichlar gullash fazasida biroz yuqori bo'lgani holda nazorat variantida 1,55 g/m² ni, fon variantida 1,97 g/m², fon+N₁₀₀; fon+N₁₅₀; fon+N₂₀₀; fon+N₂₅₀; fon+N₃₀₀; fon+N₃₅₀ variantlarida mos ravishda 2,05; 2,10; 2,25; 2,31; 2,35; 2,39 g/m² ni tashkil qildi (2-rasm).



2-rasm. G'ozaning fotosintez jadalligiga tuproq sho'rlanishi va azotli o'g'itlar ta'siri, g/m² soat

Transpiratsiya jadalligi g'ozaning shonalash fazasida sho'rlanmagan tuproqlarda nazorat variantida ertalab soat 8⁰⁰ da aniqlanganda, bir soat davomida 130,4 g/m² bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich kunning teng yarmida, ya'ni soat 12⁰⁰ da aniqlanganda 284,0 g/m²•soat gacha ortgan. Transpiratsiya jadalligi soat 14⁰⁰ va 20⁰⁰ tegishlicha 241,0 g/m²•soat hamda 83,8 g/m²•soat ni tashkil qilganligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich o'rtacha 184,8 g/m² ekanligi ma'lum bo'ldi.

Sho'rlanmagan tuproqlarda faqat fosfor va kaliyli o'g'itlar qo'llanilgan fon variantida ushbu ko'rsatkich soatlar ketma-ketligida 185,9; 305,4; 298,2; 101,4 g/m²•soat ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkichlarning o'rtachasi esa 222,7 g/m²•soat ga teng bo'ldi. 100 kg/ga dan 350 kg/ga gacha me'yorda azotli o'g'itlar qo'llanilgan variantlarda soat 8⁰⁰ da transpiratsiya jadalligi 199,0 g/m² dan 301,4 g/m² gacha, soat 12⁰⁰ da 327,1 dan 425,6 g/m² gacha, soat 16⁰⁰ 325,6 g/m² dan 398,1 g/m² gacha va kunning oxirida, ya'ni soat 20⁰⁰ aniqlanganda, 112,5 g/m² dan 172,7 g/m² gacha oraliqda tebrandi. Ushbu ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdori 241,0 g/m² dan 324,4 g/m² gacha o'zgarishi kuzatildi (3-rasm).



3-rasm. G'ozaga o'simligining shonalash fazasida transpiratsiya jadalligi (g/m²soat)

O'rganilgan tuproqlar o'rtasida suvda eriydigan tuzlarning eng yuqori miqdori kuchli sho'rlangan tuproqlarda uchraydi. Ushbu sho'rlanish darajasida olib borilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, transpiratsiya jadalligi nazorat variantida soat 8⁰⁰; 12⁰⁰; 16⁰⁰; 20⁰⁰ aniqlanganda tegishlicha 114,0; 234,0; 213,6; 64,7 g/m²•soatni tashkil qildi. Fosfor va kaliyli o'g'itlar qo'llanilgan fon variantida bu ko'rsatkichlar o'rganilgan vaqtlar ketma-ketligida 140,7; 264,0; 225,1; 80,4

$\text{g/m}^2 \cdot \text{soat}$ bo'lishi kuzatildi. Ushbu o'rganilgan ikkita variantda transpiratsiya jadalligi mos ravishda o'rtacha 156,5 va 177,5 $\text{g/m}^2 \cdot \text{soat}$ ni tashkil qildi. Fosforli va kaliyli o'g'itlar fonida azotli o'g'itlarning olti xil me'yorlari o'rganilgan variantlarda transpiratsiya jadalligi soat 8⁰⁰ da 169,9 $\text{g/m}^2 \cdot \text{soat}$ dan 234,1 $\text{g/m}^2 \cdot \text{soat}$ gacha, soat 12⁰⁰ da 272,7 g/m^2 dan 316,8 $\text{g/m}^2 \cdot \text{soat}$ gacha, soat 16⁰⁰ da 245,6 $\text{g/m}^2 \cdot \text{soat}$ dan 293,1 $\text{g/m}^2 \cdot \text{soat}$ gacha o'zgardi. Transpiratsiya jadalligi soat 20⁰⁰ da aniqlanganda 86,5 $\text{g/m}^2 \cdot \text{soat}$ dan 112,0 $\text{g/m}^2 \cdot \text{soat}$ gacha ortib bordi. Kuchli sho'rlangan tuproqlarda g'ozaning shonalash fazasida transpiratsiya jadalligining o'rtacha sutkalik miqdori tajriba variantlari bo'yicha 156,5 $\text{g/m}^2 \cdot \text{soat}$ dan 239,0 $\text{g/m}^2 \cdot \text{soat}$ gacha o'zgardi (3-rasm).


Barcha sho'rlanish darajalarida azotli o'g'itlar qo'llanilganda g'ozaning o'simligi bo'yi nisbatan yuqori bo'ldi. Lekin, sho'rlanish darajasini ortib borishi o'simlik bo'yini kichiklashishiga olib keldi. Masalan, sho'rlanmagan tuproqlarda 1.06 sanada fon+ N₁₀₀ variantida o'simlik bo'yi 30,0 sm; 1.08 sanasida 76,9 sm; 1.09 sanada 88,1 sm ni tashkil qilgani holda nazorat variantidagidan sezilarli yuqori bo'ldi.

G'ozaning o'simligining o'sib rivojlanishi uchun katalaza fermenti muhim hisoblanadi. G'ozaning o'simligi tarkibidagi katalaza fermentining faolligiga sho'rlanish darajalari salbiy ta'sir qiladi. Masalan, sho'rlanmagan tuproqlarda g'ozaning o'simligining shonalash fazasida o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantida bir minutda 29,3 ml O₂/g hisobida hosil bo'ldi. Bu ko'rsatkich azotli o'g'itlar qo'llanilmagan fon variantida esa 36,5 ml O₂/g, ushbu fonda azotli o'g'itlar qo'llanilgan barcha variantda 39,9-72,3 ml O₂/g bo'lishi kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda nazorat variantida 28,1 ml O₂/g, fon variantida 34,3 ml O₂/g, ushbu fonda azotli o'g'itlarning turli me'yorlari qo'llanilgan variantlarda 38,4-66,9 ml O₂/g ni tashkil qildi.

O'rtacha va kuchli sho'rlangan tuproqlarda yetishtirilgan g'ozaning o'simligi tahlil qilinganda, nazorat variantida katalaza fermenti faolligi 23,1-24,2 ml O₂/g, fon variantida 26,8-29,6 ml O₂/g ni tashkil qilgan bo'lsa, azotli o'g'itlar qo'llanilgan qolgan variantlarda 30,0-46,3 ml O₂/g oralig'ida tebrandi.


Dissertatsiyaning **“Turli darajada sho'rlangan tuproqlar sharoitida qo'llanilgan azotli o'g'itlarni g'ozaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri”** deb nomlangan 5-bobida sho'rlanmagan va turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida yetishtirilgan g'ozaning o'simligining o'sib rivojlanishiga azotli o'g'itlarning ta'siri to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Azotli o'g'itlar me'yorini ortib borishi bilan g'ozaning asosiy poyasi balandligi ortib bordi, bu barcha o'lgan sanalarda kuzatildi. Masalan, fon+N150 kg qo'llanilgan variantda 1.06; 1.07; 1.08; 1.09 sanalarda o'lganimizda g'ozaning asosiy poyasi balandligi sanalarga mos ravishda 21,3; 37,2; 85,2; 93,4 sm ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkichlarga fon+N200 kg li variantda e'tibor beradigan bo'lsak, qo'llanilgan azotli o'g'it hisobidan biroz yuqori bo'ldi, ya'ni yuqoridagi ko'rsatkichlarga mos ravishda 22,6; 40,2; 87,5; 96,1 sm ni, fon+N250 kg qo'llanilgan variantlarda 25,1; 42,9; 90,9; 103,4 sm ni tashkil qildi (4-rasm).



4-rasm. Tuproqning sho'rlanishi va azotli o'g'it me'yorining g'o'za asosiy poyasi balandligi ta'siri


Sho'rlanmagan va turli darajada sho'rlangan tuproqlarda g'o'za o'simligi asosiy poyasining balandligi bilan birgalikda bir tup o'simlikdagi barglar soni ham o'rganildi. Unga ko'ra, sho'rlanmagan tuproqda 1.06; 1.07 sanalarda nazorat variantida barg soni 3,0; 4,5 dona; fon variantida 4,2; 6,8 donani tashkil qilgan bo'lsa, azotli o'g'itlar qo'llanilgan variantlarda 1,06 sanada aniqlanganda 5,5 donadan 8,2 donagacha, 1.07 sanada 9,2 donadan 14,4 donagacha o'zgarishi kuzatildi (5-rasm).



5-rasm. Tuproqning sho'rlanishi va azotli o'g'it me'yorining g'o'za barg soniga ta'siri


Sho'rlanmagan o'tloqi allyuvial tuproqlarda o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantida g'o'za o'rtacha hosildorligi 13,8 s/ga ni tashkil qildi. Fosforli va kaliyli o'g'itlar tegishli 175 va 125 kg/ga qo'llanilgan fon variantida ushbu ko'rsatkich 22,4 s/ga teng bo'lgan holda nazoratga nisbatan 8,6 s/ga yuqori bo'ldi. Lekin, ushbu fon variantida g'o'za hosildorligi azotli o'g'itlar qo'llanilgan variantlardagiga nisbatan sezilarli darajada past bo'ldi. Masalan, fon+N₁₀₀,

variantda g'oz'a hosildorligi 29,1 s/ga tashkil qilgan bo'lsa, azotli o'g'itlar 150, 200, 250, 300, 350 kg/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda bu ko'rsatkich mos ravishda 32,9; 36,4; 40,3; 41,3 va 41,7 s/ga teng bo'ldi. Hosildorlik bo'yicha eng yuqori ishonarli ko'rsatkich azot 250, fosfor 175, kaliy 125 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda kuzatildi (6-rasm).



6-rasm. Sho'rlanmagan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida azotli o'g'it me'yorlarining g'oz'a hosildorligiga ta'siri

Kuchli sho'rlangan tuproqlarda g'oz'a hosildorligi eng past ko'rsatkichni qayd etdi. Masalan, kuchli sho'rlangan tuproqda nazorat variantida g'oz'a hosildorligi 10,1 s/ga, fon variantida 17,1 s/ga ni tashkil qilgan bo'lsa, azotli o'g'it qo'llanilgan variantlarda hosildorlik 21,6 s/ga dan 32,0 s/ga bo'lishi aniqlandi. Bunda g'oz'a hosildorligi azotli o'g'itlar hisobiga 4,5-14,9 s/ga yoki 24,7-87,1% ga ortdi (7-rasm).



7-rasm. Kuchli sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida azotli o'g'it me'yorlarining g'oz'a hosildorligiga ta'siri

XULOSALAR

1. Tuproq sho'rlanishi tuproqdagi gumus va harakatchan oziq moddalar rejimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sho'rlanish darajasi ortib borishi bilan tuproqda gumus va harakatchan oziq moddalar miqdori kamayib boradi. Azotli o'g'itlarni

100 kg/ga dan 350 kg/ga gacha me'yorida qo'llash tuproqda ammoniyli va nitratli azot miqdorini sezilarli oshiradi.

2. Azotli o'g'itlar o'simliklarda quruq modda to'planishi, barg yuzasi, ildiz quruq massasiga ishonarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Azotli o'g'itlar me'yorini ortib borishi bilan bu ko'rsatkichlar ham ortib boradi.

3. Tuproq sho'rlanishi va uning darajasini ortishi bilan g'o'za bargida xlorofill "a" va "b" miqdori kamayib boradi, ya'ni sho'rlanish xlorofill hosil bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Azotli o'g'itlarni qo'llash g'o'za bargida xlorofill "a" va "b" miqdorini sezilarli oshiradi. Bunda xlorofill "a" va "b" larning nisbati azotli o'g'itlar me'yori ortishi bilan qisqarib boradi. Azotli o'g'itlar xlorofill "a" ga nisbatan xlorofill "b" miqdoriga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

4. Sho'rlanish, ayniqsa o'rtacha va kuchli sho'rlanish darajalari g'o'za o'simligi fotosintez jadalligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Barcha sho'rlanish darajasida azotli o'g'itlar qo'llanilishi va ular me'yori ortib borishi bilan fotosintez jadalligi o'g'itsiz nazorat va fonga nisbatan ortib boradi.

5. G'o'za o'simligida fotosintezning sof mahsuldorligi tuproq sho'rlanish darajasi va azotli o'g'itlar me'yoriga bog'liq ravishda o'zgaradi. Tuproq sho'rlanish darajasi ortishi bilan g'o'za o'simligida fotosintezning sof mahsuldorligi kamayib boradi. Azotli o'g'itlarni qo'llanilishi va me'yoring ortishi g'o'za o'simligida fotosintezning sof mahsuldorligini sezilarli darajada oshiradi.

6. Sho'rlanmagan tuproqda transpiratsiya jarayoni yuqori darajada bo'ladi. Sho'rlanish darajasi ortib borishi bilan transpiratsiya jadalligi pasayib boradi. Azotli o'g'itlar va ular me'yorini ortib borishi transpiratsiya jadalligini kuchaytiradi.

7. O'tloqi allyuvial tuproqlarda sho'rlanish o'rtacha va yuqori darajada bo'lganda g'o'za o'simligida suvning yo'qolishi kamayadi. Azotli o'g'itlarning barcha me'yorlari sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda g'o'za bargidan suvni yo'qolishini kamaytiradi, o'rtacha va kuchli sho'rlangan tuproqlarda aksincha fonga nisbatan ko'paytiradi.

8. Tuproqning sho'rlanishi g'o'za o'simligida umumiy va erkin suv miqdorini kamayishiga olib keladi. Sho'rlanish darajasi ortishi bilan g'o'za o'simligida umumiy va erkin suv miqdorlari kamayib boradi. Azotli o'g'itlar g'o'za o'simligida umumiy va bog'langan suv miqdorini oshiradi, lekin erkin suv miqdoriga ta'sir qilmaydi. Bu holat barcha sho'rlanish darajalari va azotli o'g'itlar me'yorlarida kuzatiladi.

9. Tuproqni sho'rlanish darajasi ortib borishi bilan g'o'za o'simligi bargini nafas olish jadalligi pasayib boradi. Azotli o'g'itlar o'tloqi allyuvial tuproqlarning barcha sho'rlanish darajalarida g'o'za o'simligi bargi nafas olish jadalligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Azotli o'g'itlar me'yori ortib borishi bilan g'o'za bargi nafas olish jadalligi ortib boradi.

10. Azotli o'g'itlar qo'llanilishi g'o'za hosildorligini tuproqning barcha sho'rlanish darajalarida ishonarli oshiradi. Bunda g'o'za hosildorligi azotli o'g'itlar hisobiga sho'rlanmagan tuproqda 6,7-19,3 s/ga yoki 29,9-86,2 %, kuchsiz sho'rlangan tuproqda 5,7-17,2 s/ga yoki 26,5-80,0%, o'rtacha sho'rlangan

tuproqda 5,2-15,3 s/ga yoki 28,1-82,7 %, kuchli shoʻrlangan tuproqda 4,5-14,9 s/ga yoki 24,7-87,1 % ga ortdi.

ISHLAB CHIQRISHGA TAVSIYALAR

1. Shoʻrlangan, ayniqsa oʻrtacha va kuchli darajada shoʻrlangan oʻtloqi allyuvial tuproqlarni tuz rejimini yaxshilash natijasida ushbu shoʻrlangan tuproqlarda gʻoʻza oʻsimligi oziqlanishi va oʻsimlikni fiziologik jarayonlarini optimallashtirish hamda hosil toʻplanishini ortishini hisobga olib ushbu tuproqlarda shoʻrni kamaytirish tadbirlari tavsiya qilinadi.

2. Shoʻrlanmagan, kuchsiz, oʻrtacha va kuchli shoʻrlangan oʻtloqi allyuvial tuproqlarda gʻoʻza oziqlanishini kuchaytirish va gʻoʻza oʻsimligidagi fiziologik va biokimyoviy jarayonlarni jadallashtirish, oʻsimliklarda fotosintez soʻf mahsuldorligini oshirish uchun P175K125 fonida azotli oʻgʻitlarni 250 kg/ga meʼyorda qoʻllash maqsadga muvofiqdir.

3. Shoʻrlangan tuproqlarda azot rejimini va u orqali gʻoʻza oʻsimligi fiziologik koʻrsatkichlarini azotli oʻgʻitlarni 250 kg/ga meʼyorda qoʻllash hisobiga yaxshilash tavsiya qilinadi.

4. Barcha shoʻrlanish darajasidagi oʻtloqi allyuvial tuproqlarda gʻoʻza oʻsimligidagi fiziologik jarayonlarni jadallashtirish va uni hisobiga yuqori hosil olish uchun azotli oʻgʻitlarni fosforli kaliyli oʻgʻitlarning P175K125 fonida 250 kg/ga meʼyorda oʻsimlikning 2-3 chinbarg, shonalash va gullash fazasining boshlanishida qoʻllash tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03.30.12.2019.B.72.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

БАФАЕВА ЗАХРО ХАСАНОВНА

**ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЛИЯНИЯ АЗОТНЫХ
УДОБРЕНИЙ НА УРОЖАЙНОСТЬ ХЛОПЧАТНИКА,
ВОЗДЕЛЫВАЕМОГО НА ЗАСОЛЕННЫХ В РАЗЛИЧНОЙ СТЕПЕНИ
ПОЧВАХ**

03.00.07 – Физиология и биохимия растений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2020.4.PhD/B518.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Бухарском государственном университете

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного Совета по адресу: (www.buxdu.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научные руководители: **Ортиков Тулкин Кучкарович**
кандидат биологических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Норбоева Умида Тоштемировна**
доктор биологических наук, профессор

Авутхонов Бурхон Саурхонович
доктор философии по биологическим наукам кандидат наук, доцент

Ведущая организация: **Ургенчский государственный университет**

Защита диссертации состоится 10 июля 2024 года в 13⁰⁰ часов на собрании Научного совета PhD 03/30.12.2019.B.72.02 по присуждению научных степеней при Бухарском государственном университете, (Адрес: 200117, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел.: (99865 221-29-14), факс: (+99865 221-26-12); e-mail: bsu_info@edu.uz в здании Бухарского государственного университета, блок № 1, 2 - этаж, зал конференций).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под номером 463). (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. М. Икбола, д. 11. тел.: (+99865) 212-29-12, факс: (+99865) 212-29-12.

Автореферат диссертации разослан 21 июня 2024 года.

(Протокол реестра рассылки № 6 от 21 июня 2024 года).



Х.Т. Артикова
Председатель Научного совета по присуждению
ученой степени, доктор биологических наук,
профессор

А.М. Кобилев
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученой степени, доктор
философии по биологическим наукам кандидат
наук (PhD), доцент

А.Э. Холлиев
Председатель Научного семинара по
присуждению ученой степени, доктор
биологических наук, профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день, «засоление почв мира является основным процессом деградации почв, угрожающим экосистеме, и отмечается как самими важными глобальными проблемами для сельскохозяйственного производства, продовольственной безопасности и устойчивости в засушливых и полузасушливых регионах.

Около 33% почв уже деградированы, и деградация почв продолжается, что вызывает серьезную озабоченность. Засоление является одной из самых опасных угроз для человечества в контексте продовольственной безопасности. Эта проблема затрагивает все страны мира. Наиболее пострадавшие регионы — Центральная Азия и Африка, но засоление почв происходит на всех континентах. Общие потери от засоления почв составили примерно 27 миллиардов долларов»³. Поэтому важно разработать агротехнологические мероприятия, основанные на детальном изучении физиологии хлопчатника, являющегося одной из основных сельскохозяйственных культур, в условиях существующих засоленных почв.

В настоящее время в мире в области сельского хозяйства проводится ряд научно-исследовательских работ по изучению возделывания различных сельскохозяйственных культур и их физиологической активности, урожайности, качеству урожая, плодородия и мелиоративного состояния почв с разными типами и степенями засоления. В этом направлении особое внимание уделяется научно-исследовательской работе по определению мелиоративного состояния, плодородия орошаемых почв, районированию сельскохозяйственных культур, разработке агротехнологических мероприятий, определению показателей продуктивности, физиологической активности растений и факторов, влияющих на нее.

В разнозасоленных почвенно-климатических условиях республики путем правильного проведения агротехнологий возделывания хлопчатника, в т.ч. определения норм, сроков и форм внесения азотных удобрений можно оказывать положительное влияние на физиологические показатели растений и создать возможность повышения урожая и улучшения качества продукции.

